

ZAMONAVIY PSIXOLOGIYA VA SHARQ FALSAFASIDA QALB-RUH MUNOSABATLARINING QIYOSIY TAHLILI.

Mirkomilova Mohinur Mirmuhsin qizi

Andijon viloyati Izboskan tumani

mohinurmirkomilova2@gmail.com

+998911710712

Annotatsiya

Ushbu maqolada inson mavjudligining asosi bo‘lgan ruh va qalb tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligi ontologik va psixologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Sharq falsafasining boy merosi hamda zamonaviy psixologiya yondashuvlari qiyoslanib, ruh va qalbning bir-biriga ta’sir mexanizmlari yoritiladi. Shuningdek, maqolada ruhiy va hisiy muvozanatning buzilishi natijasida yuzaga keladigan o‘ziga xos “ma’naviy kasalliklar”, ularning kelib chiqish sabablari hamda Sharqona va zamonaviy yechimlarining sintezi taklif etiladi. Inson ongining shaxs kamoloti va salomatligining bosh omili ekanligi ilmiy asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *Qalb, Ruh, ontologiya, sharq falsafasi, inson ongi, ruhiy muvozanat, hisiy salomatlik, Ibn Sino, psixosomatika, diniy qarashlar, komil inson.*

Kirish

Insoniyat tarixida qalb va ruh masalasi eng murakkab va dolzarb mavzulardan biri bo‘lib kelgan. Insonning ichki olami, uning ruhiy kechinmalari, ma’naviy olami hamda axloqiy qarashlari qadimdan olimlar, faylasuflar va mutafakkirlarni qiziqtirib kelgan. Ayniqsa, sharq falsafasida qalb va ruh inson kamolotining markaziy tushunchalari sifatida qaralgan bo‘lsa, zamonaviy psixologiyada bu masala ilmiy va eksperimental yondashuv asosida tahlil qilinadi. Bugungi globallashtirayotgan davrida inson ruhiy salomatligi, ichki muvozanati va ma’naviy barqarorligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Texnologik taraqqiyot inson hayotini yengillashtirayotgan bo‘lsa-da, ruhiy tushkunlik, stress, depressiya va ma’naviy bo‘shliq kabi muammolar ham ortib bormoqda. Shu sababli zamonaviy psixologiya va sharq falsafasidagi qalb-ruh munosabatlarini qiyosiy o‘rganish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

Sharq mutafakkirlari inson qalbini poklash, ruhni tarbiyalash va ma’naviy kamolotga erishishni asosiy maqsad sifatida ko‘rganlar. Zamonaviy psixologiya esa insonning hissiy holati, ong osti jarayonlari, xulq-atvori va ruhiy muammolarini ilmiy metodlar asosida o‘rganadi. Har ikki yondashuvning mushtarak jihati insonning ichki olamini anglash va uni mukammallashtirishga qaratilganidir.

Asosiy qism

Sharq falsafasida qalb va ruh tushunchalarining ontologik hamda gnoseologik mohiyati sharq falsafiy va mutafakkirlik an'anasida inson faqatgina biologik mavjudot yoki ijtimoiy munosabatlar mahsuli sifatida emas, balki eng avvalo murakkab mikrokosm — koinotning kichraytirilgan nusxasi sifatida talqin etiladi. Bu borada qalb va ruh tushunchalari inson borligining markaziy poydevorini tashkil etadi. Sharq mutafakkirlari xususan, Abu Ali ibn Sino, Abu Homid al-G'azzoliy, Jaloliddin Rumiy va Alisher Navoiy kabi allomalar, Abu Abdurahmon Sulaymiy va Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf olim yozuvchilar ham asarlarida qalb va ruh shunchaki mavhum tushunchalar emas, balki inson kamolotini belgilovchi dinamik kuchlar sifatida tahlil qilingan.

Imom G'azzoliy o'zining "Kimyo saodat" ya'ni (Baxt formulasi) asarida qalbgaga alohida to'xtalib, uni ikki xil ma'noda tushuntiradi:

birinchisi - ko'krak qafasidagi jismoniy a'zo (yurak);

ikkinchisi esa - insonning haqiqiy mohiyatini tashkil etuvchi latif, ruhiy gavhardir.

Mutafakkirning fikricha, aynan mana shu ikkinchi ma'nodagi qalb bilish (ma'rifat), his qilish va ilohiy haqiqatlarni qabul qilish markazi hisoblanadi. Qalb - insonning ichki ko'zgidir. Agar bu ko'zgu nafs balolaridan, kibr va hasaddan poklansa (tazkiyatul-qalb), u borliqning aslini va haqiqatni boricha aks ettira boshlaydi.

Sharq falsafasida Ruh esa insonni harakatga keltiruvchi, unga hayot va ilohiy energiya bag'ishlovchi oliy unsur sifatida qaraladi. Ibn Sino ruhiy quvvatlarni jismoniy, hayvoniy va insoniy (natiqa) ruhlarga ajratib o'rgangan bo'lsa, tasavvuf falsafasi ruhning transcendent tajribadan tashqari tabiatiga e'tibor qaratadi. Ruh tabiatan poklikka, yuksaklikka va o'z manbaiga talpinadi. Biroq u moddiy dunyoga (jismga, jasadga) kirgach, moddiylik va nafs ta'sirida o'z mohiyatidan uzoqlashishi mumkin, shu sababli, sharq ta'limotlarida ruhni tarbiyalash (riyozat va zikr orqali) insonni hayvoniy instinktlardan (tabiatidan) xolos qilib, ma'naviy erkinlikka olib chiquvchi asosiy yo'l deb ko'riladi.

Shunday qilib, sharq falsafiy tizimida qalb va ruh munosabati bir-birini inkor etuvchi emas, balki to'ldiruvchi jarayondir. Ruh - harakatlantiruvchi kuch va hayot manbasi bo'lsa, qalb - o'sha his-tuyg'u, axloq va ma'rifat shaklida namoyon bo'ladigan makondir. Insonning ichki xotirjamligi va kamoloti aynan mana shu ikki unsurning uyg'unligiga, ya'ni qalbning pokligi va ruhning yuksakligiga bog'liqdir.

Zamonaviy psixologiyada qalb va ruh masalalarining ilmiy metodologik talqini sharq falsafasi masalaning ma'naviy va metafizik jihatlariga e'tibor qaratsa, zamonaviy psixologiya insonning ichki olamini empirik (tajribaviy) va ilmiy metodologik asosda tadqiq etadi. Psixologiya fani o'z nomini yunoncha "psyche" (ruh, qalb) va "logos" (ta'limot) so'zlaridan olgan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan u klassik diniy falsafiy "ruh" tushunchasidan uzoqlashdi va

inson ongi, xulq-atvorini hamda psixikasini o‘rganuvchi mustaqil fanga aylandi. Biroq, inson ichki olamining tub mohiyatini anglashga bo‘lgan intilish yetakchi yo‘nalishlarda hamon markaziy o‘rinda turibdi.

Xususan, psixoanaliz asoschisi Zigmund Freyd va uning davomchisi Karl Gustav Yung konsepsiyalarida sharq falsafasidagi qalb kechinmalarining ilmiy muqobillarini ko‘rish mumkin. Z. Freyd inson ruhiyatini dinamik tizim sifatida baholab, uning “ong osti” (unconscious) qismini kashf etdi. Sharqona tasavvufda “nafs” deb ataluvchi, insonni faqat moddiy va hayvoniy istaklar sari chiquvchi kuch psixoanalizda ko‘p jihatdan Freydning “Id” (U) konsepsiyasiga to‘g‘ri keladi. K.G. Yung esa psixologiyani yanada chuqurlashtirib, “kollektiv ong osti” va “arxetiplar” nazariyasini ilgari surdi. Yung qarashlaridagi “Self” (O‘zlik) tushunchasi inson ruhiyatining eng oliy, yaxlit va markaziy nuqtasi bo‘lib, u mazmunan sharq falsafasidagi ilohiy ma‘rifatga intiluvchi “sof qalb” tushunchasi bilan chuqur mantiqiy aloqaga ega.

Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan gumanistik psixologiya (A. Maslou, K. Rojers) va transpersonal psixologiya yo‘nalishlari esa inson ruhiyatini o‘rganishda sharqona qarashlarga yanada yaqinlashdi. Abraham Maslouning inson ehtiyojlari iyerarxiyasidagi eng oliy bosqich - o‘z-o‘zini namoyon qilish (self-actualization) va ichki salohiyatni to‘liq ro‘yobga chiqarish ehtiyoji sharq mutafakkirlarining “komil inson” g‘oyasi bilan g‘oyaviy jihatdan mushtarakdir.

Transpersonal psixologiya esa insonning oddiy mantiq doirasidan tashqaridagi ruhiy, diniy va transcendent tajribalarini, ya‘ni inson ruhining (spirit) yuksak holatlarini bevosita ilmiy tadqiqot obyekti sifatida qabul qiladi.

Shunday qilib, zamonaviy psixologiya qalb va ruh hodisalarini “psixika”, “ong osti jarayonlari”, “hissiy intellekt” va “shaxsiy struktura” kabi ilmiy terminlar doirasida o‘rganadi. Agar qalbni qanday poklash va ma‘naviy mukammallikka erishish yo‘lini (metodologiyasini) ko‘rsatgan bo‘lsa, zamonaviy psixologiya o‘sha jarayonlarning asab tizimi, hissiyotlar va xulq-atvordagi aniq mexanizmlarini tushuntirib beradi.

Sharq falsafasi va zamonaviy psixologiyaning qiyosiy-tipologik tahlili, inson ichki olamini, uning qalb va ruh munosabatlarini anglashda sharq falsafasi ham, zamonaviy psixologiya ham o‘ziga xos boy tajriba va metodologik bazaga ega.

Yaxlitlikka intilish: Har ikki yondashuv ham insonni shunchaki mexanik parchalardan iborat deb hisoblamaydi, sharq falsafasidagi ruh, qalb va jism uyg‘unligi g‘oyasi zamonaviy psixologiyadagi “psixosomatika” (ruh va tana bog‘liqligi) hamda shaxsning ichki yaxlitligi (butunligi) konsepsiyasiga to‘liq mos keladi.

Komillik va yuksalish ideali: sharq falsafasining oliy nuqtasi “komil inson” darajasiga yetish bo‘lsa, gumanistik psixologiyaning cho‘qqisi insonning o‘z potensialini to‘liq yuzaga chiqarishi, ya’ni “o‘z-o‘zini namoyon qilishi” hisoblanadi.

Xulosa va amaliy tavsiyalar

Ushbu qiyosiy tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, insonning ichki olami, uning qalb va ruh munosabatlari har qanday davrda ham shaxs kamoloti va ruhiy salomatligining asosi bo‘lib kelgan. Bugungi globallashuv va shiddatli texnologik taraqqiyot asrida insoniyat moddiy farovonlikka erishgan bo‘lsa-da, ruhiy tushkunlik, ekzistensial (hayotiy ma’no) bo‘shliq va surunkali stress kabi jiddiy muammolarga duch kelmoqda. Bu esa inson ichki olamiga faqatgina bir tomonlama yondashuv yetarli emasligini isbotlaydi.

Amaliy tavsiya

Kelgusida ushbu yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlar doirasida sharqona mutafakkirlarining nafs, qalb va ruh haqidagi qarashlarini zamonaviy psixoterapevtik amaliyotiga integratsiya qilish metodikasini ishlab chiqarish tavsiya etiladi. Sharq donishmandligi va g‘arb ilm-fanning sintezi bugungi kun insoni o‘z ichki olami bilan uyg‘unlikda yashashiga va hayotiy inqirozlarni yengib o‘tishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Homid al-G‘azzoliy. Kimyoi saodat (Qalb ajoyibotlari). - Toshkent, “Adolat”, 2005.
2. Abu Ali ibn Sino. Salomon va Ibsol. Tib qonunlari (Falsafiy risolalar to‘plami) - Toshkent, “Fan”, 1987.
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub - Toshkent, “G‘afur G‘ulom nomidagi ijodiy matbaa uyi”, 2011.
4. Yung K.G. Sinxronichnost: struktura i dinamika psixiki. Moskva, Refl-buk, 1997.
5. G‘oziyev E.E. Umumiy psixologiya. Darslik - Toshkent, “O‘zbekiston”, 2010.
6. Sharifxo‘jayev M. Sharq falsafasi va tariqati asoslari - Toshkent, “Sharq”, 2002.
7. htm; google.uz, gemini ia.